

INTELLEKTUAL MULK HUQUQIDA DAVLAT BOSHQARUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Maxmudov Faxriddin Foziljon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

E-mail: yuristmff@gmail.com

Annotatsiya:

Tezisdan mamlakatimizda intellektual mulk huquqida davlat boshqaruvining rivojlanish bosqichlari, intellektual mulk huquqining vujudga kelishi masalasiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tezisdan intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvidagi muammolar, kamchiliklar o'rganilgan va tahlil qilingan hamda muallif tomonidan intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, davlat boshqaruvi, xalqaro shartnoma, bitim, moddiy aktivlar, nomoddiy aktivlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, strategiya, mualliflik huquqi, bojxona reestri.

Annotation:

The thesis focuses on the stages of development of state management in intellectual property rights in our country, the creation of intellectual property rights. Also, in the thesis, the problems and shortcomings of state management in the field of intellectual property are studied and analyzed, and the author puts forward proposals for improving the practice of state management and law enforcement in the field of intellectual property.

Keywords: intellectual property, public administration, international agreement, deal, tangible assets, intangible assets, personal impropriety rights, strategy, copyright, customs register.

Intellektual mulk inson aqlining nomoddiy ijodlarini o'z ichiga olgan mulk toifasi hisoblanadi. Intellektual mulkning ko'plab obyektlari mavjud bo'lib, ushbu ko'rsatkich davlatlar qonunchiligida ma'lum farqlanishlarga egadir. Deyarli ko'pgina mamlakatlarda qonunchiligida e'tirof etilgan intellektual mulk obyekti turlari sifatida patentlar, mualliflik huquqlari, savdo belgilari va tijorat sirlaridir. XIX asr oxiri va XX asrdagi jadal ilmiy-texnik tarakkiyot, ijtimoiy hayotning rivoji huquq



tizimi, huquq sohalari tarkibini g'oyat kengaytirib yubordi¹. Intellektual mulkning zamonaviy konsepsiyasi Yevropada, xususan Angliyada, XVII-XVIII asrlarda ishlab chiqilgan. "Intellektual mulk" atamasi XIX asrda qo'llanila boshlandi va XX asrning oxiriga kelib intellektual mulk dunyoning aksariyat huquqiy tizimlarida o'z o'rnini egalladi².

Inson hayotida huquqiy himoya va himoya davlatning kelajagi va rivojlanishiga xos bo'lgan mulk mavjud. Bu intellektual mulk, ya'ni odamlarning intellektual faoliyati, aql-zakovati, zehni, ijodkorligi va qobiliyatlari natijasida vujudga keladigan qimmatli boylikdir.

Shu sababli dunyoning barcha davlatlari intellektual mulk sohasini zamon bilan hamnafas rivojlantirib borishga, sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar bazasini rivojlantirishga e'tibor berilib kelinadi. Agar davlatda intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish samarali yo'lga qo'yilsa, ixtirolar, foydali modellar, seleksiya olingan yutuqlar har tomonlama qo'llab-quvvatlansa va ularni yaratish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsa, bunday sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ham yuqori bo'ladi. Hozirda davlatlar yalpi ichki mahsulotida intellektual mulk natijasida vujudga keladigan ulushlar salmoqli o'rin egallab kelmoqda.

Shu nuqtai nazarda so'nggi yillarda mamlakatimizda intellektual mulk sohasini rivojlantirish, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish bilan bog'liq ma'muriy tartib-qoidalarni soddalashtirish, intellektual mulkni yaxshi huquqiy mexanizmlar orqali himoya qilish, intellektual mulk tovarlarini tijoratlashtirish maqsadida tizimli va samarali islohotlar amalga oshirildi.

Respublikamizda intellektual mulk bozori tizimining yaratilishini, intellektual mulk huquqining huquqini rivojlanishni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

Ushbu davrning birinchi bosqichi, 1991-1995 yillarga to'g'ri keladi, intellektual mulk sohasidagi jahon huquqiy tizimlarining tajribasini o'rganish, ushbu sohaga tegishli ixtisoslashgan xorijiy organlarga qo'shilish, milliy qonunchilik asoslarini yaratish, ushbu sohada vakolatli organlarni yaratish va shakllantirish, ya'ni Davlat patent idorasi va mualliflik huquqini himoya qilish agentligi kabi vakolatli tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ikkinchi bosqich 1996 yildan 2002 yilgacha. Ushbu davrda intellektual mulk maqsadlarini huquqiy himoya qilish sohasidagi normativ - huquqiy hujjatlar ishlab

¹ Muallif: Omon Oqyulov Intellektual mulk huquqi. I.M.Mo'minov nomidagi Falsaf va xuquq instituti. Toshkent, 2005 yil, 40 bet.

² Maxmudov, F. F. o'g'li. (2023). intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi amaliyoti va muammolari, vakolatli organlar faoliyati tahlili. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 87–100. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2113>



chiqildi va normativ-huquqiy hujjatlar bazasi kengaytirildi. Jumladan, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida", "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida", "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida", "Seleksiya yutuqlari to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda intellektual mulk huquqi sohasida faqat universal xarakterdagi 15 ta hujjat va idora faoliyatini tartibga soluvchi 120 dan ortiq me'yoriy hujjatlar ro'yxatga olingan. Bu holat Respublikamizda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan rivojlangan davlatlardagi tashkilotlar tajribasini samarali taqdim etish imkonini berdi.

2003 yilda boshlangan va hozirgi kuni qamrab olgan uchinchi bosqich, bu yillarda intellektual mulk sohasida ma'muriy takomillashtirish va rivojlanish davri, shuningdek "sheriklar bilan ishlash davri" bu huquqiy himoyalangan intellektual mulk, xalqaro konferentsiyalar, konferentsiya ob'ekti to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish, respublikamiz sohasidagi islohotlarni, xalqaro shartnomalarni jahon jamoatchiligiga etkazish davri bo'lmoqda³.

Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4168-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi Adliya vazirligi tizimiga o'tkazilib, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) sifatida qayta tashkil etildi⁴.

Intellektual mulk agentligi intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va himoya qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli ma'muriy organ sifatida tashkil etildi va intellektual mulk huquqlarining huquqiy himoyasini ta'minlash, davlat ro'yxatidan o'tgan intellektual mulk huquqlarining huquqiy himoyasini amalga oshirish, faoliyatni muvofiqlashtirish, intellektual mulk huquqlarini huquqiy himoya qilish kabi yangi vazifalar va funksiyalar yuklandi.

Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilishni ta'minlash maqsadida sobiq Intellektual mulk agentligi intellektual mulk sohasidagi qonunbuzilishlar uchun tegishli tartibda ogohnoma va taqdimnoma kiritish,

³ Jaloliddinova Mohira Alisher Qizi. (2021). fundamentals of evaluation of the value of intellectual property. *Archive of Conferences*, 16(1), 16-18. Retrieved from <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/688>

⁴ <https://lex.uz/docs/-4195426>



aniqangan ma'muriy huquqbuzarlik holatlari yuzasidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirish va sudlarga kiritish huquqlari berildi.

Intellectual mulk sohasidagi maxsus vakolatli organ Adliya vazirligi hamda agentlik faoliyatigacha Davlat patent idorasi faoliyat yuritgan.

Patent idorasi sanoat mulki obyektlari huquqlarini, shu jumladan ixtirolarni, sanoat namunalarini, foydali modellarni, tovar belgilarini, xizmat ko'rsatish belgilarini va tovar kelib chiqqan joy nomlarini (keyingi—sanoat mulki ob'ekti), shuningdek seleksiya yutug'lari, elektron hisoblash mashinalari (keyingi-sanoat mulki ob'ekti) ko'rib chiqadi. Ma'lumotlar bazasi va integral mikrosxemalar topologiyasini huquqiy himoya qilish bo'yicha yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli davlat organi hisoblangan.

Patent idorasiga patent huquqi obyektlarini himoya qilish maqsadida ko'pgina vakolat va vazifalar taqdim etilgan⁵. Patent idorasi sanoat va intellektual mulkning rolini va uni huquqiy himoya qilish tizimini, shuningdek uning davlatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat organi hisoblangan.

Davlat patent idorasi faoliyati Intellectual mulk agentligi tashkil etilishi natijasida o'z faoliyatini tugatgan. Davlat patent idorasi hamda Mualliflik huquqini himoya qilish agentligi o'rniga Intellectual mulk agentligi tashkil etilgan.

Intellectual mulk xalqaro shartnoma normalari asosida butun dunyoda bir xil tartiblar, usullar va shakllar bilan tartibga solinadi. Xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va O'zbekistonda intellektual mulk obyektlarini ro'yxatga olish va himoya sertifikatlarini berish tartiblari bir xil. Intellectual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha barcha mamlakatlarning ichki qonunchiligida belgilangan qoidalar intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalar talablariga muvofiq deb hisoblanadi.

Xalqaro shartnomalarga muvofiq ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, o'simlik navlari va hayvonlar zotlari, tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari), geografik ko'rsatkichlar, tovar kelib chiqqan joy nomlari, EHM dasturlari va ma'lumotlar bazalari intellektual mulk bo'yicha milliy idoralar tomonidan himoya qilinadi, ya'ni ular davlat ro'yxatidan o'tkaziladi va tegishli himoya sertifikatlarini beriladi.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi yoki o'simlik navlari va hayvon zotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun patent

⁵ <https://lex.uz/docs/-267696?ONDATE=07.05.2008>



muhofazasi guvohnomasi beriladi. Tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari), geografik ko'rsatkichlar, tovar kelib chiqqan joy nomlari, dasturlar va ma'lumotlar bazalari davlat ro'yxatidan o'tkaziladi va himoya guvohnomasi beriladi⁶.

O'zbekistonda 2019-yilgacha intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi (vazirlar Mahkamasiga bevosita hisobdor) tomonidan amalga oshirildi⁷. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi faqat intellektual mulk obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan shug'ullangan bo'lsa, yangi tashkil etilgan Agentlik zimmasiga intellektual mulk obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda uning qonuniy tatbiq etilishini ta'minlash vazifasi yuklatildi. Shunga ko'ra, Agentlikka intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarga yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan qonuniy ta'sir choralari qo'llash (xizmat talablari va ehtiyot choralari ko'rish, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzish) huquqi berildi.

Agentlik o'ziga yuklangan yangi vazifalarni samarali amalga oshirgani bois, Agentlikning intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha vakolati va imkoniyatlari kengaytirildi.

Xususan, Prezidentning 2021-yil 28-yanvardagi "Intellektual mulkni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4965-son qaroriga asosan Agentlik tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va shaharda Intellektual mulkni himoya qilish markazlari bilan birgalikda Intellektual mulkni himoya qilish boshqarmasi tashkil etildi⁸.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PR-89-son qarori bilan Intellektual mulk agentligi va uning hududiy markazlari Adliya vazirligiga birlashtirilib, ularga vazifa, funktsiya va vakolatlari o'tkazildi. Adliya vazirligi huzurida Intellektual mulk departamenti tashkil etildi va unga IP obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish hamda ularning ijrosini ta'minlash vakolati berildi.

Bundan tashqari, Adliya vazirligi huzurida intellektual mulk obyektlarini ro'yxatga olish maqsadida murojaatlarni ekspertizadan o'tkazish, tegishli ma'lumotlarni markazlashgan holda saqlashga xizmat ko'rsatish maqsadida "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 28-yanvardagi "Intellektual mulk obyektlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4965-

⁶ <https://lex.uz/docs/-76671>

⁷ Ismoilov, Shahboz Baxtiyorjon o'g'li. "O'zbekiston respublikasining intellektual mulk muhofazasi bo'yicha butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik aloqalari" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. Special Issue 4-2, 2022, pp. 383-391.

⁸ <https://lex.uz/docs/-5248263>



sonli qaroriga muvofiq 15-fevraldan 15-martgacha savdo-sotiqning oldini olish maqsadida “Kontakt dan xoli oylik” aksiyasi o‘tkazildi.

2020-2022-yillarda Adliya vazirligi tomonidan o‘tkazilgan monitoring va kuzatishlar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida 3080 ga yaqin huquqbuzarlik aniqlangan. Aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarga 354 ta rasmiy talab va 1367 ta ehtiyot chorasi qo‘llanilgan, 253 ta holatda ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnomalar tuzilib, sudlarga havola qilingan. Sudlar tomonidan jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan 196 nafar shaxsga jami 26 ming AQSh dollari miqdorida jarima solingan⁹.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish va sohani bevosita rivojlantirishga qaratilgan tizimli islohotlar samarasida intellektual mulk sohasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Shuningdek, O‘zbekiston mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish bo‘yicha 4 ta xalqaro shartnomaga a‘zo bo‘ldi;

Fonogramma ishlab chiqaruvchilarni ularning fonogrammalarini ruxsatsiz takrorlashdan himoya qilish to‘g‘risidagi konventsia (Jeneva, 1971-yil 29-oktabr), Ijrolar va fonogrammalar to‘g‘risidagi BIMT shartnomasi (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr), WIPO, 19-dekabr, mualliflik huquqi to‘g‘risidagi shartnoma va Marokash shartnomasi (Marokash, 2013-yil 27-iyun) shulardan biridir¹⁰.

– Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish jarayoniga ilk bor 200 dan ortiq hududiy adliya organlari jalb etildi. Ushbu organlarning ko‘magida hududlarda birinchi marta intellektual mulk huquqlarini qo‘llash tom ma'noda yo'lga qo'yildi;

– ochiqlik va oshkoralik tamoyilini ta'minlash maqsadida intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun arizalar berish jarayoni elektron shaklga o'tkazildi;

Xususan, 2016-yilda 6884 ta ariza tushgan bo'lsa, 2017-yilda 8059, 2018-yilda 8617, 2019-yilda 10142, 2020-yilda 8707 va 2021-yilda 14287 ta ariza tushgan.

– tovar belgisini, xizmat ko'rsatish belgisini va tovar kelib chiqqan joy nomini ro'yxatdan o'tkazish uchun arizalar berilganidan keyin Adliya vazirligi tomonidan bir ish kuni ichida ushbu talabnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar o'zining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi tartibi belgilandi;

– endilikda 24/7 rejimida elektron shaklda ro'yxatdan o'tgan intellektual mulk obyektlarining himoya hujjatlarini olish imkoniyati yaratildi;

⁹ <https://adliya.uz/adliya-ochiq-malumotlar>

¹⁰ Marrakesh Treaty to Facilitate Access to Published Works for Persons Who Are Blind, Visually Impaired, or Otherwise Print Disabled (2013)



– intellektual mulk sohasida professional yuridik yordam ko'rsatuvchi patent vakillari instituti faoliyati sezilarli darajada takomillashtirildi;

(patent vakiliga qo'yiladigan talablar keskin qisqartirildi, muayyan sohada 3 yillik tajriba va faoliyat bilan bog'liq talablar olib tashlandi)

– intellektual mulk obyektlaridan noqonuniy foydalanganlik uchun ma'muriy javobgarlik kuchaytirildi. Qonun hujjatlariga mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilishi hamda ixtiro, foydali model va sanoat namunalariga bo'lgan huquqlarning buzilishiga doir yangi normalar kiritildi;

Intellektual mulkdan noqonuniy foydalanish uchun javobgarlik kuchayganligi sababli, 2019 yildan beri intellektual mulk bo'yicha da'volar keskin oshdi.

(2016 yilda – 60, 2017 yilda – 85, 2018 yilda – 89, 2019 yilda – 60, 2020 yilda esa 400 taga ko'proq sud muhokamalari o'tkazilgan) Intellektual mulk sohasida qonun ijodkorligi faoliyatida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda¹¹.

Adliya vazirligi sohadagi qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirmoqda. Qonun ijodkorligi faoliyati natijasida sohaga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi:

– 2022-yil 26-aprelda O'zbekiston tarixida birinchi marta 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi¹².

Strategiya mamlakatimizda intellektual mulk sohasini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, IP, shu jumladan sanoat mulki ob'ektlariga bo'lgan murojaatlarni ko'rib chiqishning soddalashtirilgan tizimini joriy etish hamda xalqaro tajriba asosida idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va sanoat mulki huquqlarini himoya qilish choralarini ko'rishga qaratilgan.

– mualliflik huquqi muddati 50 yildan 70 yilgacha uzaytirildi¹³;

– intellektual mulk obyektlarini yaratishda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarni rag'batlantirish tizimi yaratildi;

– ayrim turdagi intellektual mulk ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat (patent) boji bo'yicha imtiyozlar berildi;

– mualliflik huquqi va turdosh huquqlar egalariga buzilgan huquqlari uchun 20 tadan 1000 ta asosiy hisob birligigacha (550 dan 27 300 AQSH dollarigacha) kompensatsiya to'lash tartibi joriy etildi;

¹¹ <https://adliya.uz/adliya-ochiq-malumotlar>

¹² <https://lex.uz/uz/docs/-5987120>

¹³ <https://lex.uz/docs/-76671>



– O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ko‘rsatkichlar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi.

– sanoat mulkiga bo‘lgan huquqlarni buzganlik uchun yuridik shaxslarga 100 dan 200 gacha asosiy hisob-kitob birligi (2750 dan 5500 AQSh dollari) miqdorida jarima solish tarzida korporativ javobgarlik joriy etildi ¹⁴.

Yuqorida qayd etilgan o‘zgarishlar, davlat boshqaruvidagi yangiliklar intellektual mulk huquqining rivojlanishiga, takomillashiga xizmat qilmoqda. Yuqorida keltirilganlar asosida shuni aytishimiz mumkinki, intellektual mulk huquqining rivojlanishi yurtimiz va xalqaro amaliyotda o‘ziga xos bosqich va jarayonlarni qamrab oladi. Yurtimizda intellektual mulk huquqi obyektlari muhofazasiga qaratilgan qonunlarning qabul qilinishi, ushbu sohada davlat boshqaruvini rivojlantirishga qaratilgan harakatlar va islohotlarning barchasi intellektual mulk huquqining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shganligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Kitob va turkum nashrlari (normativ-huquqiy hujjatlar)

1.1 O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi

1.2 O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

1.3 O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi

1.4 Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni

1.5 “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni

1.6 “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni

1.7 Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 20-mayda 1361-tartib raqami bilan ro‘yxatga olingan Sanoat namunasiga O‘zbekiston Respublikasi patentini berish haqidagi talabnomani tuzish, topshirish va ko‘rib chiqish qoidalari

1.8 Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo‘llanilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenum qarori

1.9 "Гражданский кодекс Российской Федерации (часть четвертая)" от 18.12.2006 N 230-ФЗ (ред. от 07.10.2022)

1.10 Закон Республики Казахстан от 10 июня 1996 года № 6-І «Об авторском праве и смежных правах» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 20.06.2018 г.)

¹⁴ <https://www.eureporter.co/world/uzbekistan/2023/01/29/legal-protection-and-enforcement-of-ip-in-uzbekistan/>



1.11 Таможенный кодекс Евразийского экономического союза от 11 апреля 2017 года

1.12 Intellektual mulk. Darslik. Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof., O.Oqyulov, yu.f.f.d. (PhD), dots.nt N.E.Gafurova // Mualliflar jamoasi. –T.: TDYUU nashriyoti, 2019. – 588 bet. 322.

1.13 Федоров А. А. Правовая охрана проектных решений в Украине: монография / А. А. Федоров. – Одесса: Бахва, 2015. – 172 с.

1.14 Adliya vazirligi Intellektual mulk departamenti 2022-yil hisobotlari.

1.15 Bojxona qo'mitasi intellektual mulk bo'yicha tahlillari.

Xalqaro hujjatlar

1.16 Adabiy va san'at asarlarini himoya qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi 1886, Parij akti 1971 y.

1.17 Patent protsessual maqsadlarda mikroorganizmlar depozitini xalqaro tan olish to'g'risidagi Budapesht shartnomasi 1977 y.

1.18 Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini o'rnatish to'g'risidagi Lokarno kelishuvi 1968 y.

1.19 Belgilarni xalqaro ro'yxatga olish to'g'risida Madrid Protokoli 1989 y.

1.20 Belgilarni ro'yxatdan o'tkazish maqsadlari uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifi to'g'risida Nitssa kelishuvi 1957 y.

1.21 Sanoat namunalarini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi 1883 y.

1.22 Patent kooperatsiyasi shartnomasi, Vashington 1970 y.

1.23 Patent huquqi shartnomasining (PLT) asosiy qoidalari 2000 y.

1.24 Xalqaro patent tasnifi bo'yicha Strasburg kelishuvi 1971 y.

1.25 Tovar belgilari huquqi to'g'risidagi Singapur shartnomasi 2006 y.

1.26 Tovar belgilari to'g'risidagi qonun shartnomasi 1994 y.

1.27 Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi (Jeneva, 1996 yil 20 dekabr)

1.28 Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi (Jeneva, 1996 yil 20 dekabr)

1.29 Fonogramma tayyorlovchilarning manfaatlarini ularning fonogrammalari noqonuniy takrorlanishidan muhofaza qilish to'g'risida konvensiya (Jeneva, 1971y)

1.30 Ko'zi ojiz, ko'rishda nuqsoni bo'lgan va bosma axborotni idrok etishda boshqa jihatdan qobiliyati cheklangan shaxslarning nashr etilgan asarlardan foydalanishini yengillashtirish to'g'risidagi Marokash shartnomasi 2013 y.



II. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferati

2.1 Якубова И.Б. Номоддий неъматлар ва шахсий номулкий ҳуқуқларнинг Япония қонун ҳужжатларидаги тушунчаси, моҳияти ва белгилари // *Фан ва ёшлар*. –Т.: ТДЮИ, – 2011.– №4 – Б.27-30.

2.2 Тошев Б.Н. Законодательные основы и формы защиты авторских прав в Узбекистане.: Автореф. Канд.юрид. наук. –Ташкент. ТГЮИ. 1999. 21б.

2.3 Окюлов О. Правовой статус интеллектуальной собственности. Атореф.дисс.докт.юрид.наук. –Тошкент: 2001.-45 с.

III. Jurnaldaqi maqolalarga havola

3.1 Юлдашов, Абдумумин. "Ўзбекистон республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари." *юрист ахборотномаси* 2.5 (2022): 58-64.

3.2 Abdumumin Yuldashov. (2023). Intellectual property law policy in Uzbekistan. *Global Scientific Review*, 12, 80–85. Retrieved from <http://scientificreview.com/index.php/gsr/article/view/169>

3.2 Abdumumin Yuldashov, Sreenivasulu N Shanmuka raqamli muhitda mualliflik huquqi muhofazasi // *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-muhitda-mualliflik-huquqi-muhofazasi> (дата обращения: 17.06.2023).

3.3 Maxmudov, F. F. o'g'li. (2023). Intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi amaliyoti va muammolari, vakolatli organlar faoliyati tahlili. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 87–100. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2113>

3.4 Jaloliddinova Mohira Alisher Qizi. (2021). Fundamentals of evaluation of the value of intellectual property. *Archive of Conferences*, 16(1), 16-18. Retrieved from <https://conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/688>

3.5 Maxmudov Faxriddin Foziljon o'g'li. (2023). Intellektual mulk sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolar, intellektual mulk sohasidagi nizolarning sudlovga taalluqligi masalasi. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 2(5), 244–249. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/2038>



IV. Internetdagi (elektron) manbalarga havolalar

<https://www.lex.uz>

<https://www.norma.uz>

<https://www.wipo.int>

